
SHAHAR HOKIMLIGIDA 2023 YILNING I-CHORAGI DAVOMIDA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI BILAN ISHLASH NATIJALARI YUZASIDAN XISOBOT

Shahar hokimligiga joriy yilning 1-choragi davomida barcha manbaalar orqali jismoniy va yuridik shaxslar vakillaridan jami **127 ta** (240ta) murojatlar shundan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi **51ta** (108ta), Xalq qabulxonasi orqali 30 ta (58 ta), Bosh Prokuratura ishonch telefoni orqali **11 ta** (10ta) va shahar hokimligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri **35ta** (64ta) yozma murojaatlar kelib tushgan. (Bu ko‘rsatkich 2021 yilning shu divrida 240 tani tashil etib, 113 taga yoki 47,1% kamaygan)

Xususan, mazkur murojaatlarning **76 tasi** (59,8%) ijobiy hal etilgan, **51 ta** (40,2%) murojaatga qonuniy tushuntirish berilgan.

Murojaatlar sohalar kesimida tahlil etilganda, Boshlang‘ich to‘lovsiz uy-joy olish **18 ta**, Moddiy yordam ajratish **29 ta**, Tadbirkorlikni rivojlantirish masalasida **19 ta**, Yo‘llarni ta‘mirlash **19 ta**, Qishloq xo‘jaligi sohasida **8 ta**, Obodonlashtirish masalasida **16 ta**, Uy-joylarni ta‘mirlash **2 ta**, Ichimlik suvi masalasida **4 ta**, Elektr ta‘minoti **2 ta** hamda boshqa sohalariga oid **10 ta** murojaatlar kelib tushganligi aniqlandi.

Eng ko‘p murojaatlar shaharning Ziynat **16 ta** (12,6%), X.Olimjon **12 ta** (9,4%), Bog‘bon **7 ta** (5,5%), Kokilon **7 ta** (5,5%), Qo‘chqorchi **7 ta** (5,7%), Yoshlik **7 ta** (5,5%), Do‘stlik **5 ta** (3,9%), Namuna **5 ta** (3,9%), Xuvaydo **5 ta** (3,9%), Pakana **4 ta** (3,1%), mahalla fuqarolar yig‘inlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Shuningdek, Joriy yilning 1-choragi davomida shahar hokimi tomonidan tasdiqlangan qabullar jadvaliga asosan shahar hokimi tomonidan jami **9 marotaba** shahsiy hamda **10 marotaba** ommaviy sayyor qabul o‘tkazilib, qabullar davomida jami **209 nafar** fuqarolarning murojaatlari ro‘yxatga olingan.

2023-07-25 16:07:15